

ZAMONAVIY OQITISH TEXNOLOGIYASINI TA'LIM JARAYONIGA TATBIQ ETISHNING OZIGA XOS XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12198576>

Urinova Aziza Ziyadullayevna

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti assistenti

Annotatsiya

Maqolada oliy ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o'quv adabiyotlarining yangi avlodi va innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini axborotlashtirishni amalga oshirish asosiy vazifalardan etib belgilangan.

Kalit so'zlar: *pedagogik texnologiyalar, o'quv-tarbiya jarayonini, oliy ta'lim muassasalari, uzluksiz ta'lim tizimi, axborotlashtirish, pedagog-olim, ta'lim-tarbiya, molik.*

Аннотация

В статье в качестве основных задач определены обеспечение образовательного процесса в высших учебных заведениях качественной учебной литературой нового поколения и инновационными педагогическими технологиями, реализация информатизации системы непрерывного образования.

Ключевые слова

педагогические технологии, образовательный процесс, вузы, система непрерывного образования, информатизация, педагог-ученый, образование, собственник.

Abstract

In the article, providing the educational process in higher education institutions with a new generation of high-quality educational literature and innovative pedagogical technologies, implementing the informatization of the continuous education system are defined as the main tasks.

Key words

pedagogical technologies, educational process, higher education institutions, continuous education system, informatization, pedagogue-scientist, education, owner.

Bugungu kunda ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o'quv adabiyotlarining yangi avlodi va innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan

ta`minlash, uzluksiz ta`lim tizimini axborotlashtirishni amalga oshirish asosiy vazifalardan etib belgilangan.

Ushbu masalalarni amalga oshirishda respublikamizning pedagog-olim va amaliyotchilari tomonidan ijtimoiy-pedagogik sharoitga moslashgan ta`lim texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni ta`lim-tarbiya jarayoniga joriy etish borasida muhim ahamiyatga molik ishlar olib borilmoqda.

Agar ta`limga texnologik yondashuv haqida to`xtaladigan bo`lsak, o`tgan asrning 70-yillarida pedagogikada yuzaga kelgan o`quv jarayonini to`liq boshqarish g`oyasi - pedagogik amaliyotda aniq maqsadlar va natijalarga yo`naltirilgan o`quv jarayonini boshqarish orqali didaktik muammolarni yechish mumkinligini ko`rsatdi.

O`qitishga texnologik yondashuv o`quv jarayonini aniq vositalar yordamida boshqarish va qo`yilgan o`quv maqsadlariga erishish kafolatini nazarda tutadi. Bu muammo butun dunyo pedagog-olimlari tomonidan hozirga qadar tatqiq etib kelinmoqda.

Pedagogikada texnologik yondashuv doirasida ba`zi hal qilinmagan Zamonaviy masalalar mavjud. Ushbu muammolarni hal etishda texnologik yondashish asosida tashkil etilgan o`quv jarayonida amalga oshirilgan o`qitish vaziyatlariga urg`u beriladi.

Texnologik tashkil etilgan o`quv jarayonining belgilari quyidagilardan iborat:

1. Diagnostik (tashxis) maqsadlarni qo`yish.
2. Talabalarning kuzatuvchi harakatlari ko`rinishida istalgan etalonni aniqlash asosida ta`limni rejalashtirish.
3. Talabalarni boshlang`ich testlashtirish va ularning haqiqiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, o`quv maqsadlarini muayyanlashtirish.
4. Ta`limning borishini tezkor teskari aloqa orqali ta`minlanadigan va o`qishning borishini mos ravishdagi tuzatilishi bilan kuzatiladigan maqsadlarga ketma-ket yo`naltirish.
5. Ta`limni alohida amalga oshiriladigan o`qitish maqsadlariga bo`lib chiqish.
6. O`quv jarayonini to`liq boshqarish.
7. Yakuniy natijaning kafolatlanganligi.

So`nggi yillarda texnologik yondashuv tarafdorlari bilan gumanistik pedagogika tarafdorlari o`rtasida doimiy munozaralar bormoqda.

Gumanistik tarbiya tarafdorlari pedagoglarni ta`lim jarayonini qat`iy loyihalashtirishdan, har bir talabani talabi va qiziqishlari bilan mos ravishda rivojlanish imkoniyatini ta`minlash uchun o`zgaruvchan tashqi ta`sirsiz paydo bo`lgan erkin vaziyatga o`tishga chaqiradilar.

O`z navbatida, texnologik yondashuv tarafdorlarining hisoblashicha, «talabalar pedagogik talablardan xoli bo`ldi deguncha, foydasiz narsalarni deyarli avtomatik ravishda o`zlashtirishni boshlaydilar» degan tasavvurlar gumanistlarning mumtoz xatosi bo`lib hisoblanadi.

Bizning nazarimizda, bugun turli yondashuvlardagi salbiy jihatlarni qidirishdan ko`ra, muammo yechimi bo`yicha aniq ilmiy yechimlarni topishga o`tish lozim.

Bunday yondashishning mohiyati, ta`lim jarayonini tizimlashtirishdan, uni aniq rasmiylashtirilgan va qismlari bo`yicha aniq elementlarga ajratish yordamida maksimal shakllantirishdan iborat. Tadqiqotlarda ta`lim texnologiyasi – bu o`quv jarayoni qatnashuvchilarining (ta`lim beruvchi va ta`lim oluvchilar) o`zaro harakat usuli va vositalaridir, degan fikrlar ham bildiriladi.

Ta`lim texnologiyasining usul, vosita va shakllari:

- ta`lim maqsadlariga;
- o`quv materialining mazmuniga va murakkablik darajasiga;
- ta`lim oluvchilarning yoshiga, ularning psixologik imkoniyatlariga;
- ta`lim beruvchining pedagogik mahoratiga;
- ta`lim muassasasining moddiy texnik ta`minlanganligiga va dastlabki

shart-sharoitlariga qarab tanlanishi va qo`llanilishi lozim.

B.Ziyomammedov va Sh.Abdullaevalarning fikricha, ta`lim texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish ilmiy muammo sifatida maxsus tadqiqotlar olib borishni talab etadi. Bunda, ular eng avvalo, quyidagilarni aniqlash lozimligini ta`kidlab o`tadilar:

- ta`lim texnologiyalarini ilmiy ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish uchun ijtimoiy-pedagogik asoslar mavjudligini aniqlash;
- ta`lim majmua sifatida nimani anglatishi va qanday tarkibiy qismlardan tashkil topganligini belgilash;
- ta`lim texnologiyasining funksional majmui jarayon sifatida nimalardan iboratligini aniqlash;
- ta`lim texnologiyalarining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» maqsadlariga qay darajada to`g`ri kelishi va uni baholash mumkinligini ko`rsatib berish.

Shuni aytish joizki, ta`lim texnologiyalari, pedagogika sohasining tadqiqot ob`ekti sifatida, aniq yoki maxsus fanlarni o`qitish uslubi bo`libgina qolmay, balki ijtimoiy fanlarni o`qitishda ham yangicha yondashuv sifatida qaralishi lozim.

Ba`zi tadqiqotchilar, «O`quv jarayonini texnologiyalashtirish orqali sifatli va haqiqiy ta`lim berishga erishish mumkinligini va har qanday texnologiyaning yetakchi zvenosi oxirgi natijaga erishish» deb hisoblaydilar.

Ta`lim texnologiyasining ishlab chiqarish texnologiyasidan farqi shundaki, unda dastlabki va so`nggi natijalarga erishishda shaxs (inson) turishidadir. Masalan, an`anaviy o`qitish texnologiyasida o`qituvchi ta`lim jarayonlarida ba`zi talabalardagi o`quv materialini o`zlashtirish davomida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni aniqlaydi va ularga yakkama-yakka yondashgan holda qo`shimcha mashg`ulotlar olib boradi. Bunda shaxsni to`laqonli shakllantirish usuli, metodika yoki texnologiyalardan foydalanish nazarda tutiladi. Bizning ilmiy pedagogik nazariya va amaliyotimizda, shaxsni shakllantirish xususiyatlari rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanuvchi tarbiyaviy jarayon, o`rgatuvchi, hamda didaktik texnologiyalarni amalga oshiruvchi ta`lim jarayoni sifatida qaraladi. Ba`zi ilmiy tadqiqotlarda ta`lim texnologiyalarining xususiy metodikalardan farqli jihatlari ham o`rganilgan.

Ta`lim texnologiyasi - butun o`qitish va o`rgatish jarayonini yaratish, amalga oshirish va baholashning tizimli usuli bo`lib, u o`quv maqsadiga erishishga yo`naltirilgan holda insonlarning o`rganish qobiliyati va ular o`rtasida muloqot o`tkazish, tadqiqotlar natijasiga, hamda ta`lim jarayonini yanada samarali tashkillashtirishning jonli, jonsiz vositalari bilan shug`ullanishga asoslanadi.

Amerikalik olimlarning pedagogik texnologiya yordamida dars o`tish usuli xususiy o`quv maqsadlariga erishishga hamda fikrlash tafakkurini mahsuldor darajasini rag`batlantirishga qaratilgan, ya`ni:

1. Talabalar diqqatini jamlash.
2. Talabalarga dars maqsadini yetkazish.
3. Kerakli bilimlarni esda qoldirish va ko`nikmalarni egallash zarurligini uqtirish.
4. Talabada qiziqishni uyg`otish, harakat qilishga undaydigan o`quv materialini taqdim etish.
5. Talabaning javob harakatlarini ma`qullab, rag`batlantirish.
6. Talabalarning o`zlashtirishidan xabardor bo`lib borish.
7. Talabaning fikrlash (tafakkur) faoliyatini boshqarish, bilim va malakalari mustahkamlanishini rag`batlantirib borish.
8. Talabalarning harakatini baholash.

N.Saydahmedov va A.Ochilovlarning fikricha, pedagogik texnologiya - bu o`qituvchi (tarbiyachi)ning o`qitish (tarbiya) vositalari yordamida talaba(lar)ga

muayyan sharoitda ta`sir ko`rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir.

Yuqorida keltirilgan pedagogik texnologiya to`g`risidagi ta`riflarni nazariy tahlil qiladigan bo`lsak, xorijiy (shu jumladan, yaqin xorijiy) davlatlarning olimlari tomonidan berilgan ta`riflar bilan O`zbekistonlik olimlar bergan ta`riflari mazmunan bir-biriga yaqin kelsada, farqi ham anchaligini ko`ramiz. Rivojlangan mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan qo`llanilib kelayotgan pedagogik texnologiyalarni o`rganib, xalqimizning milliy pedagogika an`analari, o`ziga xos xususiyatlari, respublikamizda yig`ilgan tajribalar hamda ta`lim sohasining shu kundagi holatidan kelib chiqqan holda O`zbekistonning milliy pedagogik texnologiyasini yaratish lozim.

Yuqoridagi fikrlar va ta`riflardan kelib chiqib pedagogik texnologiyaning asosiy aniqliklarini sanab o`tamiz:

✓ bevosita rejalashtirilgan natijaga olib boruvchi pedagogik jarayon-ning tavsifidir;

✓ yanada samaraliroq ta`lim shakliga ega bo`lishi uchun, inson va texnik vositalar va ular orasidagi o`zaro ta`sirni hisobga olish yo`li bilan butun ta`lim jarayonini va bilimlarni o`zlashtirishni rejalashtirish, qo`llash va baholashning tizimli metodidir;

✓ barcha o`quv vaziyatlarini loyihalash asosida o`qituvchilar va talabalar faoliyatini dasturlashtirish;

✓ shaxsni shakllantirish jarayonining tavsifiy loyihasi;

✓ pedagogik jarayonni samarali amalga oshirishning ilmiy asoslangan qayta loyihalaniishi;

✓ bilimlarni o`zlashtirishning barcha jihatlarini qamrab oluvchi, muammolarni yechishda o`zlashtirish va bilim olishning barcha jihatlarini qamrab oluvchi, muammolarning yechilishini rejalashtirish, ta`minlash, baholash va boshqarishning vosita va usullari, g`oyalar, insonlarni o`z ichiga oluvchi kompleks yangilanuvchi jarayondir.

Ta`limi muassasalarida maxsus fanlarni o`qitish va ishlab chiqarish ta`limini takomillashtirish masalalari bo`yicha O.Abduquddusov, L.Golish va D.Fayzullaeva, S.Ashurova, D. Nuriddinov va boshqalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu ishlar ta`lim muassasalari o`quv rejasiga kiritilgan maxsus fanlarni o`qitish samaradorligini oshirishga yo`naltirilgan. Ammo, respublikamizda va yaqin xorijiy mamlakatlardagi mavjud ilmiy-metodik maqola va adabiyotlarning tahlili, ta`lim tizimida maxsus fanlarni to`laqonli zamonaviy ta`lim texnologiyalari asosida

shaxsga qaratilgan o`qitishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq qilish bo`yicha yetarlicha ilmiy-metodik izlanishlar olib borilmaganligidan dalolat beradi.

Maxsus fanlarni o`qitishda o`qitishning zamonaviy texnologiyalarini qo`llash imkoniyatlarini o`rganishdan oldin, ta`lim jarayonidagi maxsus fanlarning o`ziga xos xususiyatlarini ko`rib chiqamiz.

Ta`lim jarayonida maxsus fanlarning mazmuni, mohiyati va ularning o`ziga xos xususiyatlari haqida respublikamizda qator ilmiy-uslubiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, S.Ashurova maxsus fanlar bo`yicha o`quv-uslubiy ta`minotini yaratishda, o`quv jarayonini tashkil etishda ta`limning samarali usullarini tanlashda, ta`lim mazmunini belgilashda chuqur ilmiy-tahlil o`tkazish muhimligini ta`kidlaydi.

Q.T.Olimov ta`lim jarayonida maxsus fanlarni mazmuni va mohiyatiga ko`ra quyidagi guruhlarga ajratadi:

1. O`quv materialida texnikaga bog`liq masalalar yoritilgan maxsus fanlar.
2. O`quv materiallarida mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasiga bog`liq masalalar yoritilgan maxsus fanlar.
3. O`quv materialida xom-ashyo materiallariga bog`liq masalalarni yorituvchi maxsus fanlar.
4. Ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish va iqtisodiyoti to`g`risida o`quv materiallarini o`zida qamrab olgan maxsus fanlar.

U.D.Xidirov, K.J.Mirsaidov, R.K.Chorievlar maxsus fanlarni o`rganishdan maqsad «talabalarda hozirgi zamon texnikasi va ishlab chiqarish texnologiyasi bo`yicha kasbiy mahoratni shakllantirishdir», deb fikr yuritib, maxsus fanlarni o`qitishda qo`yiladigan didaktik tamoyillarni keltirganlar.

Maxsus fanlardan o`quv dasturlarini tuzish va dars jarayonini mazkur dasturlar asosida tashkil etish uchun quyidagilarni inobatga olish lozim:

1. O`quv dasturlari va ish rejalarini tuzishda fanlar va mavzularning ketma-ketligiga e`tibor qaratish;
2. Ta`lim muassasalari talabalarining umumiy o`rta ta`lim maktabidan olgan bilimlarini chuqurlashtirish va mukammallashtirish maqsadida o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi tizimida fizika, kimyo va matematika fanlaridan chuqurroq bilim berish;
3. Maxsus fanlardan yangi pedagogik texnologiyalarini joriy etishda talabalarga ko`proq turli ishlab chiqarish korxonalarini tomonidan chiqariladigan mahsulotlarni tayyorlashda bajariladigan texnologik jarayonlarning amaliy yo`nalishini kuchaytirishga e`tiborni qaratish kerak. Buning uchun Ta`lim muassasalaridagi maxsus fanlardan amaliy va tajriba mashg`ulotlarini ishlab

chiqarish jarayonida o`tkazish va talabalarda nazariy bilim, ko`nikma va malakalarini mustahkamlash o`z mutaxassisliklariga oid qiziquvchanlikni oshirishni yo`lga qo`yish lozim.

Ta`lim muassasalarida maxsus fanlarni o`rganishda odatda «qo`sh» darslar ya`ni, har biri 45 minutdan bo`lib, orasida 5 minut tanaffus qilinadigan ikki davrdan iborat darslar qo`llaniladi. Bu hol mashg`ulotlar tizimini rejalashtirishni osonlashtiradi va darslarda mustaqil grafik ishlar va hisoblashlar, mashqlar va shu kabilar o`tkazishni yengillashtiradi.

Maxsus fanlarni o`qitishda nazariy dars va amaliy mashg`ulotlar rejasini aslo o`quv rejasini yoki o`quv materialini bilan aralashtirib yubormaslik lozim. Nazariy va amaliy mashg`ulotlarning rejalari faqatgina «yo`l ko`rsatuvchidir». Ularni o`qitish yoki o`rganish materialini sifatida tushunmoq darkor. Dars rejasini dars jarayonini boshqarib boradi va o`qitish, shuningdek, o`rganish materiallari o`rnini olmasligi kerak. Bunday reja o`quv maqsadlarini, modul yoki mavzu, amaliy usullarni o`qitish va o`rganish materiallarini, shuningdek, qat`iy belgilangan vaqt chegarasini o`zida mujassam etadi.

Ta`lim muassasalarida maxsus fanlarni o`qitish - bu murakkab jarayon bo`lib, o`z ichiga avvalo o`qituvchi va talabani uzluksiz faoliyatini oladi. O`qituvchi dars mobaynida qancha harakat qilmasin, agar talabalar ham dars jarayonida faol ishtirok etmasalar, bilish jarayoni sust ketadi. O`qituvchi dars jarayonida o`qitayotgan fani bo`yicha, nafaqat ilmiy axborotlarni, yangi bilimlarni beradi, balki o`quv jarayonini rejalashtirib, boshqarib borish bilan birga dars mobaynida talabalar maxsus fanlar bo`yicha bilimlarini o`zlashtirish jarayonini tekshiradi, nazorat qiladi va ularga mashg`ulot mobaynida mehnat qilish ko`nikmasini, farqlash qobiliyatini, olgan bilimlarini amalda qo`llashga ham o`rgatadi.

Masalan, zamonaviy o`qitish texnologiyasini dars jarayonida foydalanilishi uchun o`qituvchi:

- ✓ kommunikatsiya-axborotlarni qabul qilish va yetkazib berish;
- ✓ talabalarni ta`lim olishga motivatsiya-qiziqtirish;
- ✓ o`qitishni vizuallashtirish-ko`rgazmalilik tamoyili (yuqori darajada amalga oshirish) asosida boshqarish kabi mahoratlariga ega bo`lishi zarur.

Zamonaviy ta`lim jarayoniga axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining kirib kelishi, o`qitishning yangi shakllarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bunday ta`lim shakllaridan biri kompyuterli o`qitish texnologiyasidir.

Kompyuterli o`qitish texnologiyasi asosan elektron ta`lim resurslari orqali amalga oshiriladi [50].

Kompyuterli o`qitish texnologiyasining xususiyati shundaki:

- ✓ ta`lim oluvchining mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo`naltirilgan;
- ✓ o`qituvchi ta`lim jarayonida maslahatchi sifatida qatnashadi;
- ✓ o`qitish jarayonidagi axborot vositalari va resurslarining faol integratsiyasi ta`minlanadi;
- ✓ o`qitish motivatsiyasi oshiriladi;
- ✓ ta`limning jadalligi va natijaviyligini oshiradi;
- ✓ ta`lim oluvchining mustaqil ishlash va izlash malakalarini shakllantiradi.

Dasturlashtirilgan o`qitish texnologiyasi. Dasturlashtirilgan o`qitish pedagog va talabaga zarur bo`lgan tezkor ichki va tashqi teskari aloqa shaklida amalga oshiriladi. Ichki teskari aloqa - talabanning o`zi tomonidan bajariladigan, o`quv materialining o`zlashtirili-shini muttasil tahlil qilib borishdir. Tashqi teskari aloqa - pedagog yoki boshqaruvchi - o`qituvchi tomonidan o`quv materialining talaba tomonidan o`zlashtirilishini muttasil baholab borish.

Bugungi kunda o`qitishda shaxsga yo`naltirilgan yondashuv talabalaridagi ijodkorlik sifatlarini shakllantirishda etakchi vositalardan biri ekanligini «o`zini-o`zi boshqarish», «o`zini-o`zi rivojlantirish», «shaxsiy faollik», «o`zini-o`zi tashkil qilish» kabi tushunchalarning shaxsga yo`naltirilgan ta`lim amaliyotida qo`llanishi ham asosiy dalil bo`lishi mumkin. Bularning hammasini umumlashtiruvchi jihat shundaki, sub`ektning o`zi o`zining o`qish, ta`lim va rivojlanish jarayonining tashabbuskori va tashkilotchisi bo`ladi, ya`ni ta`lim oluvchi - talaba bilishning sub`ektiga aylanmaydi, balki avval boshdan shunday sanaladi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, bitiruv ishida asosiy maqsad interfaol o`qitish jarayonida talabalarda kreativ (ijodkorlik) qobiliyatni rivojlantirishning pedagogik tizimini ishlab chiqish hamda oliy o`quv yurtlari talabalarida kreativ qobiliyatni rivojlantirishga yo`naltirilgan ilmiy metodik tavsiyalar yaratish tarzida belgilanib, zaruriy tadqiqot vazifalari shakllantirilgan. Talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish mazmunini DTS talablari asosida tahlil etib, tadqiqot doirasidagi «kreativlik», «kreativ qobiliyat», «pedagogik kreativlik», «interfaol o`qitish», «interfaol o`qitish sharoiti», «talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish» kabi asosiy tushunchalar mohiyatiga nisbatan o`zining mustaqil qarashlari va nazariy mushohadalarini aniq va tartibli bayon qilgan. Belgilangan tadqiqot vazifalarining amaldagi ijrosi ilmiy tadqiqot ishining umumiy mazmunida mavzuga oid falsafiy, ilmiy-pedagogik, psixologik manbalar va mavjud holatni tahlil qilish asosida interfaol o`qitish jarayonida talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirishning nazariy asoslari zamonaviy pedagogik-psixologik tadqiqotlar misolida yoritilgan.

Bu jarayonda pedagog-psixolog olimlarning fikriga qo`shilgan holda, talabalarning bilish faolligi va shu asosda ulardagi ijodiy intilishni qo`llab-quvvatlash vositalari quyidagi maqsadlarga yo`naltirgan bo`lishi kerakligini ta`kidlamoqchimiz:

a) barcha ta`lim oluvchilarni umumiy pedagogik qo`llab-quvvatlash (talabalarga diqqat bilan, yaxshi munosabatda bo`lish, ularni o`quv-bilish jarayonini rejalashtirishga jalb qilish, o`zaro o`qitish muhitini yaratish, ta`limning faoliyatli mazmuni, o`rgatuvchi o`yinlar, rang-barang ijodiy ishlar, ularning yutuqlarini ijobiy «muvaffaqiyat zinapoyasi»da baholash, dialogik muloqotdan foydalanish);

b) individual-shaxsiy qo`llab-quvvatlash (talabani shaxsiy muammolarini aniqlash; rivojlanish, tarbiyalanganlik, o`qishni takt bilan tashxislash; har bir talabani rivojlanish jarayonini kuzatib borish; pedagogik yordam va qo`llab-quvvatlash zaruratini talabani individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ta`minlash va b.

Turli yondashuvlarning tahlili shuni ko`rsatadiki, o`qituvchi kasbiy faoliyatining ijodkorlikka yo`naltirilganligini to`laqonli tarzda o`rganish uchun munosabat nazariyasi nuqtai nazaridan yondashish kerak. Chunki munosabat shaxsning mayllarini o`zida mujassamlashtiradi. Shu asnoda shaxsning kasbiy yo`nalganligini aniqlash imkoniyati vujudga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Kh.A.Umarov Analysis of Approaches to the Formation of Professional Readiness of Students in Uzbekistan (On the Example of Future Teachers) Annals of R.S.C.B., ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 2, 2021, Pages. 510 - 518
2. О.Ю.Шаврина Укитувчининг педагогик акси. Уфа Стерлитамак, 2000
3. В.А.Сластенин ва бошқалар Педагогика: олий таълим муассасалари учун ўқув кўлланма/ М.:2008 Издательский центр "Академия"
4. Е.В.Харитоновна Об определении понятий «Компетентность» и «Компетенция» // Успехи современного естествознания. – 2007. – № 3. – С. 67-68;
5. Д.Р.Шукурова Бўлажак ўкитувчининг касбий тайёргарлиги <http://jurnal.org/>
6. О.Е.Пермяков, С.В.Менькова Диагностика формирования профессиональных компетенций монография Москва 2010
7. Х.А.Умаров, З.А.Умарова Использование электронно-образовательных ресурсов в целях создания образовательной экосистемы

International Scientific Conference Proceedings –Advanced Information Technologies and Scientific Computing|САНКТ-ПЕТЕРБУРГ 2018 1318-1320 стр

8. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova Pedagogika nazariyasi va tarixi Fan va texnologiyalar. 2010-yil74.00M 41 Y 7007
9. S.S.G'ulomov va boShq. Iqtisodiy informatika.- T.:1999.
10. Farberman B. Ilor pedagogik texnologiyalar - T., 2001
11. YohldoShev J., Usmonova S.A. Pedagogik texnologiyalar asoslari - T., 2004
12. Shodmonova Sh., XoShimova M.,Fayzullaeva N. Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti. T.: Fan va texnologiyalari. 2008 y.
13. Sh.Shodmonava, N.Mirsagatova, G.Ibragimova, M.Mirsolieva Pedagogik texnologiyalar T.:|| 2011.